

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

7 / 2020

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJAPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

- 2 **B.X.BAYDJANOV.** O'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik zaruriyati
- 4 **Z.A.BAXADIROVA, E.R.NURTAYEV.** Imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli yondashuvi
- 6 **D.SH.RAXIMOVA.** O'quvchi shaxsining psixologik salomatligi maktab psixologi faoliyatidagi ustuvor yo'nalish
- 8 **N.X.VALIYEVA.** Ijodiy qobiliyati yuqori bolalarni o'qitish muammolari
- 9 **D.G.AZIZOVA.** Autizm sindromiga ega bolalar
- 10 **F.P.RAJABOVA.** Yoshlarda xulq og'ishi muammosi ijtimoiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida
- 12 **SH.J.TEMIROVA.** Taqiqlangan faoliyatni bajarish hissini bartaraf etish
- 16 **N.G.ODILOVA.** Ijtimoiy yetuklik – bolalarning maktabga psixologik tayyorligining asosi sifatida
- 17 **B.S.AXRAROV.** Ijtimoiy muhitning o'smir shaxsining kreativ imkoniyatlari rivojlanishiga ta'siri
- 20 **X.S.RAXIMOVA.** Korreksion - pedagogik mashg'ulotlarda koxlear implantli bolalarni mustaqil faoliyatga tayyorlashning mazmuni va zamonaviy yondashuvlari
- 21 **D.YO'LDOSHYEVA.** Maxsus ta'lim tizimida interfaol metodlardan foydalanishning xususiyatlari
- 24 **S.UMAROVA.** Maxsus maktablarda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirishda logopedik o'yinlarning ahamiyati
- 25 **N.MIRBOBOYEVA.** Autizm – aqliy mutizm
- 26 **O.F.HAYDAROVA.** Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish qobiliyatini tadqiq qilish hamda rivojlantirish yo'llari
- 27 **J.XUDOYQULOV.** Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'zaro munosabatlari muammosi
- 29 **M.X.SAMIDJONOVA.** Maktab o'qituvchisining mehnatini ilmiy asosda tashkil etish tamoyillari
- 31 **T.E.ASHUROVA.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda predmetlar olami orqali ijodkorlikni shakllantirish
- 32 **D.R.TURAYEVA.** Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituvchining o'quvchilari haqidagi assotsiativ tasavvurlari
- 34 **D.N.MAMATOV, H.S.YAKUBOVA, D.MUXAMEDJANOVA.** STEAM ta'lim dasturi texnik taraqqiyotning asosiy poydevoridir
- 35 **X.Z.ISMATULLAYEVA, R.B.DAMINOVA.** Jun va ipak tolali gazlamalar, ularning olinishi (dars ishlanmasi)
- 38 **YU.G'.MAHMUDOV, A.TURSUNOV.** Fizikadan ekologik mazmunda masala yechishda o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyatining bosqichli jarayonlari va aloqa turlari
- 40 **A.A.ARTIKOV.** Сравнительный анализ целевой точности технических приемов у футболистов высокой квалификации, выполняемых в соревнованиях и в тренировочных занятиях
- 42 **K.A.ФАРФИЕВА.** Интернет коммуникация как фактор формирования научного мышления



AUTIZM – AQLIY MUTIZM

N.Mirboboyeva, Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti "Defektologiya" kafedrasida o'qituvchisi

В этой статье представлена информация о причинах, типах и симптомах аутизма у детей, актуальных в настоящее время. Выделены особенности детей с синдромом аутизма.

Ключевые слова и понятия: аутизм, умственная отсталость, синдром ретта, аспергиллез, метод, аутизм, коррекция, социальная коммуникация.

This article provides information on the current causes, types, and symptoms of autism in children. The features of children with autism syndrome are highlighted.

Key words and concepts: autism, mental retardation, retta syndrome, aspergillosis, method, autism, correction, social communication.

Bolalarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlarning barchasi ham miya-ning organik yetishmovchiligi natijasida kelib chiqmaydi. Ba'zan ruhiy jarayonlarning buzilishiga bolaning yashash muhiti, atrofdagi odamlarning unga bo'lgan munosabatlari yoxud noto'g'ri tarbiya ham sabab bo'lishi mumkin. Miya faoliyatidagi o'zgarishlarga organik shikastlanishlardan tashqari yana shunday sabablar borki, bu sabablar miya to'qimasida kerakli bo'lgan ayrim moddalar yetishmovchiligi bilan baholanadi. Shunday kasalliklardan biri autizm sindromidir.

Autizm (grekcha „autos“ - „o'zim“ degan ma'noni bildiradi). Olimlar bu kasallikning kelib chiqishiga sabab, embrion bosh miyasining rivojlanish bosqichida mocos oqsilining yetishmasligi deb fikr yuritadilar. Ayrim manbalar esa, bu kasallikning kelib chiqishi boshqa kasalliklar deb taxmin qiladilar. Masalan, qizilcha, sil, onaning homiladorlik paytida semirib ketishi kabilari. Ammo bularning barchasi shunchaki faraz xolos. Aslida kasallikning paydo bo'lishi haqidagi aniq ilmiy faktlar hali ham mavjud emas. Bu ruhiyat bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunday kasallikka chalingan bolalarning ruhiy xususiyatlari sog'lom bolalarnikidan tubdan farq qiladi. Kasallikning yengil darajasi aspergiya deb nomlanadi, og'ir shakli esa retta sindromi deyilib, o'n mingtadan bitta bolada uchraydi. Kasallikning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu sindromga chalingan bolalarning ruhiyatida sustkastlik, ya'ni o'z qobig'iga o'ralish kuzatiladi. Bunday bemorlar atrofdagilar bilan muomala qilishni istamaydilar, yolg'izlikni va tinchlikni xohlaydilar, kulmaydilar. Faqatgina ularga biror buyum yoki kimdir yoqib qolgandagina ularga qarab jilmayishlari mumkin. Ularning tashqi ko'rinishlari xuddi niqob taqqanga o'xshaydi. Jonli va jonsiz predmetlarni farqlamaydilar, predmetlarni bir tekisda joylashtirib chiqishni, tartibni juda yaxshi ko'radilar. Xavf-xatarni his qilmaydilar va ma'lum bir so'z yoki gaplarni qayta-qayta takrorlaydilar yoki umuman gapirmaydilar. Besh yosh va ba'zan undan kattalarda ham nutqning yaxshi rivojlanmasligi, ayrim hollarda esa umuman yo'qligini ham kuzatish mumkin. Ular boshqalarning emotsiyalarini tushunmaydilar. Autizm sindromiga chalingan bolalar hayotida faqatgina o'zlari mavjud bo'ladilar. Fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar bu kasallikni aqliy mutizm deb ta'riflaydi. Bu kasallikda miyadagi nutq markazlari shikastlanmagan holda ham nutqiy buzilishlari kuzatiladi. Ko'pgina olimlarning tadqiqotlari va uzoq yillik kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, autizm bilan kasallangan bola o'z „men“ini unutadi. Bunday bolalar uchun oddiy jumalarni ham tushuna olmaslik, baland tovushdan qo'rqish, yorqin ranglardan chekinish (masalan, sariq rangga nisbatan ularda fobiya mavjud bo'lishi), tanadagi arzimmas jarohatdan ham qattiq og'riq his qilish kabi xususiyatlar xosdir. Bunday bolalar ko'p hollarda murakkab bo'lgan aqliy mashqlarni qiynalmay bajarishlari mumkin, ammo shuning barobarida eng oddiy vazifalarni, masalan bog'ich bog'lashni epolmasliklari kuzatiladi.

Sindrom asosan bola uch yoshga to'lganda va shu oraliqdagi vaqt davomida ilk belgilarini namoyon qiladi. Chaqaloqlik davrida ham ushbu kasallik belgilarini sezish unchalik qiyin emas. Autizmga chalingan chaqaloqlarda tashqi ta'sirlarga e'tibor umuman kuzatilmaydi. Ular hatto kam yig'laydilar, onasiga va boshqa yaqinlariga intilishmaydi. Ushbu sindrom o'smirlar va kattalarda kam uchraydi. Sindrom qizlarga qaraganda o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Kasallik etiologiyasi hali to'liq o'rganilmagan. Bu sindrom irsiy ekanligi ham aniqlanmagan.

Kasallikning 4 asosiy belgisi farqlanadi:

1. Ijtimoiy aloqaning buzilishi (ko'zga qaramaslik, atrofdagilarga e'tiborsizlik va h.k)

2. Aloqa yo'lining buzilishi (nutqning buzilishi)

3. O'zini tutishdagi o'ziga xosliklar

4. Dastlabki simptomlarning asosan 3 – 5 yoshdan boshlab namoyon bo'lishi (bolada ijtimoiylashuv jarayoniga to'liq kirishish boshlanadigan davrda).

Kasallikka qarshi hali davo choralarini topilmaganini inobatga olib, autistik bolalarga ta'lim-tarbiya jarayonini keng ko'lamda va to'g'ri tashkillash asosiy vazifa hisoblanadi. Ularga qattiqqo'llik va o'ta mehribonlik qilish noto'g'ri. Bunday bolalarni davolash imkonini yo'q bo'lsada, ularning kasalliklarini imkon qadar erta aniqlash va ularga tegishli ruhiy ta'sir ko'satishga erishish mumkin. Aytaylik, autizmga chalingan bolalarning aksariyatlarida musiqa, matematika, tasviriy san'at kabi fanlarni o'zlashtirish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda, ularni aynan shu yo'nalishdagi mashg'ulotlarga jalb qilishga urinish, og'zaki nutqini rivojlantirish uchun ular bilan o'z-lari istagan narsalar haqida ko'proq gaplashishga harakat qilish lozim.

Bundan tashqari, ularning o'yin faoliyatlarini kuzatish va ularni o'ziga jalb qilishi mumkin bo'lgan o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu borada ijtimoiy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi zarur omildir. Autistik bolada ham o'ziga xos qobiliyatlarning shakllanganligini inobatga olish lozim. Agar bunday bolalar uchun ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tashkil etilsa, ularning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Bunda psixolog, defektolog, pediatr, ota-ona va albatta, jamiyat a'zolarining hamkorlikdagi faoliyatlari alohida o'rin egallaydi.

Yevropa mamlakatlarida bunday bolalar alohida xarakter xususiyatiga ega hisoblanganliklari sababli ularga o'zlari istaganday erkin yashay olish uchun sharoit yaratishga e'tibor qaratiladi. Chunki ular erkin shaxs sifatida faoliyat yuritib, ma'lum sohalarida yutuqlarga erishishlari mumkin. Ammo bu ko'pincha ijobiy natijaga olib kelavermaydi. Bizning mamlakatimizda esa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasi uchun maxsus muassaslar va pedagogik faoliyatlar tashkil etilgan. Kompleks yondashuv asosida bu bolalarga ta'lim-tarbiya beriladi. Ularning ijtimoiylashuv jarayonini imkon qadar oshirish juda muhim. Shu sababli ham bola asosan, psixolog mutaxassis tomonidan chuqur o'rganilishi va bemorning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kasallik garchi chuqur o'rganilmagan bo'lsada, bugungi kunga kelib mamlakatimizda autizmga chalingan bolalar ham korreksion ta'lim jarayoniga jalb etilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa autik bolalarni ham imkon qadar ta'limga jalb etish, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlash, ularning imkoniyatlarini ochish, shu bilan bir qatorda ta'limni olib borish jarayonida ularning o'ziga xos jihatlarini belgilab borish, ularni chuqurroq o'rganishdir.

Mustaqil respublikamizda bolalar salomatligi, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ularning barkamol va har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Sog'lom bolalar qatori nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ham jamiyatda o'z o'rnini topishi, ularni sog'lomlashtirish va ularga ham sog'lom bolalar qatori ta'lim-tarbiya berish mamlakatimizning muhim bir e'tiborga molik jihatidir. Mamlakatimizda tashkil etilgan maxsus korreksion-pedagogik shart-sharoitlar buning yaqqol isboti bo'la oladi. Shuning uchun bu faoliyatni yanada takomillashtirish, to'liq o'rganilmagan anomaliyalarni o'rganish va ularga korreksion yondashuvning, ta'lim-tarbiya jarayonining yangi texnologiyalarini



ishlab chiqish bizning oldimizda turgan eng muhim vazifadir.

Autizmga chalingan bolalarning bizning mamlakatimizda ham yo'q emasligini hisobga oladigan bo'lsak, bunday bolalarga alohida yondashuvni tashkil qilish, ularning intellektual salohiyatlarini inobatga olgan holda ularga yordamni tashkil etish, joiz bo'lsa ularga inklyuziv ta'lim asosida ta'lim berish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmog'i-miz lozim.

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA ESHITISH QOBILIYATINI TADQIQ QILISH HAMDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

O.F.Haydarova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

В данной статье представлен анализ исследования потери слуха у детей с нарушениями слуха.

Ключевые слова и понятия: слух, когнитивное восприятие, коррекция, компенсация, реабилитация, речь, отключение звука, речь.

Barchamizga ma'lumki surdopedagogika sohasining vazifalaridan biri eshitishida nuqsoni bo'lgan (kar va zaif eshituvchi) insonlardagi ikkilamchi nuqsonni bartaraf etishga, ya'ni nutqini rivojlantirishga qaratilgandir.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish ishlarini tashkil etishda ulardagi eshitish qobiliyatini tekshirish, eshitish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda korreksion ish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bola haqida qisqa ma'lumot yig'ish lozim: ilk jismoniy rivojlanish, nutqni o'sishi, eshitish qobiliyatini yo'qotishning vaqti va sababi, eshitish qobiliyatini yo'qotishning xarakteri, nutqni yo'qotishning xususiyatlari (nutq bilan eshitish qobiliyatini bir vaqtda yo'qolishi yoki bir qancha vaqtdan keyin to'satdan yoki asta-sekin), tarbiya sharoiti. [1]

Tekshirish tinch sharoitda, shovqinlardan holi bo'lgan xonada o'tkazilishi kerak.

Vibratsion sezgilari orqali ovozni qabul qilish imkoniyatini yo'qotish uchun bolaning oyog'i tagiga gilamcha solinadi. Bolaning ko'z oldida oyna bo'lmasligini kuzatib turish kerak. Bolaning notanish sharoitga bo'lgan ta'sirini yo'qotish yoki kamaytirish uchun yohud ular bilan tezda munosabatda bo'lishda ota-ona yoki pedagogning ishtirok etishi tavsiya etiladi. Tekshirish oldidan bolaga eshitalayotgan ovozga qanday ta'sir ko'rsatish kerakligi tushuntiriladi (qayrilib qarash, tovush manbaini ko'rsatish, aytilayotgan tovush va so'zni takrorlash, qo'lini ko'tarish, chiroqli nuqtani bosish). Bolaning tug'ilgan dastlabki kunlaridayoq uning tovushga nisbatan ta'sirini bilish mumkin. Buning uchun tovushdan ta'sirlanish (baland ovoz, qo'ng'iroq jarangi, xushtak ovozi) natijasida yuzaga keladigan va go'dak boshini qimirlatishi, qovoqlarini harakatlantirishi, emizilayotgan paytida emish harakatidan to'xtashi yuz beradigan ta'sirlanishdan foydalaniladi. Bu reaksiyalar (ta'sirlanish) shartsiz refleks xarakteriga ega. Go'daklarda tovushga bo'lgan shartli reaksiyani ham hosil qilish mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi (2-4 yosh) bolalarning eshitish qobiliyatini tekshirish uchun ovozi o'yinchoqlardan foydalanish lozim. [2]

Bolalarning eshitish qobiliyatini tekshirishda ob'ektiv audiometriya deb nomlangan metod katta ahamiyatga ega.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish darajalari aniqlagandan so'ng ular olib boriladigan korreksion ishlarning mazmuniga ahamiyat qaratishimiz lozim. [3]

Eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlarning dastlabki bosqichi nutqsiz tovushlarni o'rganishdan boshlanadi. Bu tovushlar ko'proq sado chiqarish, chastota xarakteristikasi turli tuman bo'ladi, shuningdek tovush nomini belgilashda lug'at boyligi unga ko'p talab qilinmaydi. Bu bolalar uchun, ayniqsa maxsus tayyorgarligi bo'lmagan bolalarning maktabga chiqishida juda muhimdir. Nutqsiz tovushni bolalar tez ilg'ab oladilar.

Nutqsiz tovushlarni o'rganishdan asosiy maqsad, bolalarda atrof-muhit haqidagi tassavvurni aniqlash, ularning eshituv analizatorlarini turmushga, ya'ni kundalik hayotga yo'naltirmoq, so'ngra nutqni idrok

Adabiyotlar

1. Лобачева. М. Ранний детский аутизм. Пути реабилитации. – М.: «Знание». 2017.
2. Р.М.По'latova, L.Sh.Nurmuhamedova va boshqalar – Maxsus pedagogika (darslik). – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti. 2014.
3. Каган В. Аутизм у детей.-М.: «Смысл», 1981.
4. uz.wikipedia.org.

This article presents an analysis of the study of hearing loss in children with hearing impairments.

Key words and concepts: hearing, cognitive perception, correction, compensation, rehabilitation, speech, mute, speech.

etishga tayyorlashdir. Nutqsiz tovush orqali eshituv idrokni rivojlantirish dasturi shunday tuzilgan, bunda o'quvchilar eshitishi qulay bo'lgan tovushlardan (doira, nay) lekin bir-biridan keskin farq qiladigan tovushlardan foydalaniladi.

Sekin-asta uncha baland bo'lmagan tovushlarni farqlashga o'tiladi. Bir vaqtni o'zida tovushni nutq bilan farqlashga, ya'ni o'quvchilarni nutq konstruksiyasi bilan (doira ovozi chapdan kelayaptimi?, men doira ovozi eshitayapman) tovushni anglashga o'rgatiladi.

Nutqsiz tovush orqali eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlarida dastlab tovushlarni idrok etishda tovushlarni farqlagan yoki farqlanmagan tovushga bo'lib o'rganiladi.

Nutqsiz tovushni idrok etishda farqlanadigan tovush deganda kelib chiqishi noma'lum tovush, ya'ni o'quvchilar tovushni eshitadi, lekin uni qaysi tomondan kelayotganligini aniqlay olmaydi.

Farqlanmagan tovushni idrok etish bo'yicha bo'ladigan dastlabki darslarda o'quvchilarning eshitish diapazoni chastotasi va dinamikasi hisobga olinadi va nutqsiz tovushlardan foydalaniladi. Buning uchun tovushlarning intensivligini va chastota xarakteristikasi yetarli darajada kuchli bo'ladi, ya'ni bolalar tovushlarni tovush kuchaytirgich apparati yordamida eshita olishlari kerak. Bunda bolalar tovushni eshita qo'llarini ko'taradilar.

Har bir o'quvchi tovushni idrok etib, qo'lini ko'tara boshlaydi. O'qituvchi o'quvchiga ko'zini yumishini, boshini egishini va 2-3 marta doira chalishni (doiraga urishni) so'raydi, tovushni eshitgan o'quvchilar qo'llarini ko'tarishlari kerak.

O'quvchilarni tekshirish uchun o'qituvchi ayrim paytda doirani chertmaydi, o'quvchidan ko'zini ochishini iltimos qiladi va tovushni eshitdilaringmi, deb so'raydi. O'qituvchi darsni to'g'ri har bir o'quvchi o'rganib olguncha yoki tovushni farqlamaguncha davom ettiradi, ko'pchilik o'quvchi o'zlashtirgandan keyin darsni tugatish mumkin.

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz joizki, kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarni tashkil etishda ularning nuqson xususiyatlarini inobatga olish zarur ekanligi hamda ulardagi ikkilamchi nuqsonni bartaraf etish yo'llarini to'g'ri yo'lga qo'yish mazkur toifa vakillarining bilim olishi, kasb-hunar egallashi va eng muhimi jamiyat hayotiga moslashuvda ahamiyati beqiyosdir.

Adabiyotlar

1. Сурдопедagogika: учебник для студ. высш. пед. учеб. с 90 заведений / [И.Г.Багрова и др.]; под ред. Е.Г.Речицкой. – М.: Гуманитар. изд. центр Владос. (Коррекционная педагогика). 2004.
2. Головниц Л.А. Дошкольная сурдопедagogika: Воспитание и обучение дошкольников с нарушениями слуха: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Гуманитар. изд. центр Владос. (Коррекционная педагогика). 2001.
3. Fayziyeva U.Yu. // Surdopedagogika. Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: 2012.